



## XALQ DEPUTATLARI QASHQADARYO VILOYAT KENGASHI Q A R O R I

2023 - yil 14 - dekabr

VI-67-121-4-0-K/23

Qashqadaryo viloyati hokimligi

### **Viloyatda ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv xizmatlari uchun taklif etilayotgan narxlar (tariflar)ni tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining "Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to'g'risida"gi Qonunining 45-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi "Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6074-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-sentabrdagi "Yoqilg'i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 475-sonli qarori ijrosiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. "Qashqadaryo suv ta'minoti" MCHJ direktori vazifasini vaqtincha bajaruvchi T.Yakubovning viloyatda ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv xizmatlari uchun taklif etilayotgan narxlar (tariflar) yuzasidan taqdimoti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Viloyatda ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv xizmatlari uchun "Qashqadaryo suv ta'minoti" MCHJ tomonidan taklif etilayotgan narxlar (tariflar) **ilovaga** muvofiq ma'qullansin.
3. Tasdiqlangan tariflar ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingandan keyin o'n besh kun o'tgach kuchga kirishi belgilansin.

4. Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining 2023-yil 17-iyuldagi VI-62-72-4-0-K/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal xo‘jaligi masalalari va aholiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi I.Xalilov hamda viloyat hokimining o‘rinbosari M.Azizov zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash raisi**



**M.Azimov**

Xalq deputatlari Qashqadaryo  
viloyat Kengashining  
2023-yil 14-dekabrda  
VI-67-121-4-0-K/23-son  
qaroriga  
1-ilova

**“Qashqadaryo suv ta’minoti” MCHJ tomonidan taklif etilgan  
1 m<sup>3</sup> ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv xizmatlari narxlar**

**JADVALI**

<b>T/R</b>	<b>Xizmat turlari</b>	<b>Iste’mol turi</b>	<b>O’lchov birligi</b>	<b>Amaldagi narxi QQS siz (so’mda)</b>	<b>Taklif etilgan narx QQS siz (so’mda)</b>
1.	Ichimlik suvi	aholi iste’molchilariga	1 m <sup>3</sup>	2 000	2 500
		budjet tashkilotlariga	1 m <sup>3</sup>	4 000	6 000
		ulgurji iste’molchilariga	1 m <sup>3</sup>	7 000	10 000
2.	Oqova suv	aholi iste’molchilariga	1 m <sup>3</sup>	1 000	1 500
		budjet tashkilotlariga	1 m <sup>3</sup>	2 200	2 500
		ulgurji iste’molchilariga	1 m <sup>3</sup>	4 400	5 000